



DIRIJYORLIK SAN'ATI TARIXI

Sobirjonova Sarvinoz

O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti
"Estrada cholg'u ijrochiligi" fakulteti Estrada Orkestr Dirijyorligi
yo'nalishi 2 - kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Toxtaxunova Gulniso Shavkatbek qizi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15696898>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 14-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 19-Iyun 2025 yil

KEY WORDS

dirijyorlik, musiqa san'ati, ijro, orkestr, texnik ko'nikmalar, mashhur dirijyor.

ABSTRACT

Ushbu maqolada dirijyorlik san'atining kelib chiqishi, tarixiy shakllanish bosqichlari va zamonaviy rivojlanish jarayoni yoritilgan. Musiqa asarlarini ijro etishda dirijyorning tutgan o'rni, orkestrni boshqarish uslublari, O'zbekiston musiqa san'atida mashhur dirijyorlarning ijodiy faoliyati, ularning musiqiy merosga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi.

Barkamol avlodni ma'naviy ongini shakllantirishda musiqaning alohida o'rni bor. Hozirgi kunda ma'naviyatimizning bir bo'lagiga aylangan musiqa san'ati kundan -kunga rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda Respublika miqyosida musiqa san'atining barcha yo'nalishlari bo'yicha ta'lim berish yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonning bir qancha oliy ta'lim muassasalarida musiqa sohasi bo'yicha bakalavr hamda magistr larni tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lib, shu ta'lim yo'nalishlarida o'qish uchun xujjat topshirayotgan yoshlar soni yildan yilga ortib bormoqda.

Musiqa sohasi bo'yicha kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining cholg'u ijrochiligi yo'nalishlari dirijyorlik fani ixtisoslik fanlari qatoriga kiritilgan. Talaba dirijyorlik fanini o'rganish doirasida dirijyorlik san'ati tarixi, dirijyorlik harakati, dirijyorlikda qo'llarning vazifalari, orkestr turlari va ularning tuzilishi shu bilan birga partitura ustida ishlash ko'nikmalarini o'rganadi.

Shuningdek, O'zbekiston davlat konservatoriyasi talabalari shu ta'lim muassasiga o'qishga qabul qilingunga qadar o'rta- maxsus musiqiy ta'lim muassasalari -ixtisoslashtirilgan musiqa maktablarida tahsil olib kelishadi. Bo'lajak talaba u yerda umumiy musiqiy bilim dirijyorlik fanidan saboq oladi. Ushbu ta'lim muassasalarida o'quvchilarga dirijyorlik holati va dirijyorlik qilish o'rgatiladi. Konservatoriyaga o'qishga qabul qilingach dirijyorlik fanini chuqurroq o'rganish jarayoni boshlanadi. Bu jarayonning dastlabki bosqichida yuzaga keladigan eng birinchi muammo - bu dirijyorlik apparatining noto'g'ri qo'yilganligidir.

Dirijyorlik apparatining to'g'ri qo'yilishi, qo'llarning erkinligi, gavda hamda bosh holatining to'g'riligi -bu dirijyorlikni asosi hisoblanadi. Dirijyorlik qilish paytida tana tik va shu bilan birga harakatga tayyor holatda ko'krak qafasi sal ko'tarilgan, yelka tik holda bo'lishi muhim hisoblanadi. Dirijyorlik san'ati musiqa ijrochiligida muhim o'rin tutadi. Dirijyorlik - bu musiqiy jamoani ya'ni orkestr, xor, ansambl yoki boshqa ijrochilar guruhini boshqarish

san'atidir. Dirijyorlik san'ati asli Yevropada shakllanib, bir qancha dirijyorlar mutaxassis sifatida namoyon bo'ldi. Ulardan IX asr oxiri XX asr boshlarida X.Rixter, G.Maler, A.Nikish, K.Muk, K.Zanderling kabi birinchilardan bo'lib dirijyor sifatida tanilib chiqqan. Shuning uchun bo'lsa kerakki Yevropada har xil davlatlarda dirijyor so'zi o'z ma'nosiga ega. Masalan, italyanlar "Diridente", inglizlar "Konduktor", nemislar "Dirident" deydilar. Har qaysi tilde ham bu so'z rahbar, boshliq ma'nosini anglatadi. Dirijyor sahnadagi barcha musiqachilarning harakatlarini bir tizimga solib, ularni bir maqsad sari yo'naltiradi. Bu kasb chuqur bilim, kuchli musiqiy tafakkur va badiiy tasavvur talab qiladi

Dirijyor nafaqat jamoani boshqaruvchi inson, balki musiqaning ma'no mazmunini chuqur his qilgan holda, uni tinglovchilarga yetkazuvchidir. Dirijyor yuzdan ortiq musiqachilar faoliyatini asosiy muvofiqlashtiruvchisidir. Masalan musiqiy asarning mazmunini, muallif g'oyasini, noyob tomonlarini ochib berish yoki buzib ko'rsatish dirijjorga bog'liq. U notalarni ovozga aylantirishda rahbarlik qiladi, musiqa asarining tuzilmasi, dinamikasi va tempini boshqaradi. Dirijyorlik asosan qo'l harakatlari mimikalar va dirijyorlik tayoqchasi yordamida boshqaruvni amalga oshiradi. Qo'l harakati orqali tempni belgilaydi, kuchli yoki kuchsiz ovozlarni ko'rsatadi, pauzalarni bildiradi. Musiqa san'ati asosan ijrochilikdan iborat bo'lsada, dirijyor asar ijrosining qanday bo'lishini belgilaydigan va har bir musiqachini umumiy maqsadga yo'naltiradigan asosiy shaxs hisoblanadi. Dirijyorlik xorshunoslik, yakkaxonandalik mashg'ulotlari, solfedjio, musiqa nazariyasi va garmoniya, aranjourovka, musiqa adabiyoti, musiqa asarlar tahlili va boshqa shu kabi fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu fanlarni o'zlashtirish, xor asarlarning mukammal ijrosini mustaqil ravishda teran ifodalash uchun zarur bo'lgan bilim va malakalarni shakllantiradi.

18 asr va klassik davr dirijyorlik san'ati rivojlanishida muhim bosqichlardan biri hisoblangan. Ushbu davrda musiqaning umumiy tuzilishi hamda ijrochilik amaliyoti o'zgardi, ayniqsa, simfonik orkestrlar rivojlandi.

Dirijyorlik san'ati mustaqil san'at turi bo'lib, tasdiqlanguncha uzoq va murakkab tarixiy jarayonni bosib o'tdi. XVII asr Italiyada dirijyorlikning nazariy asosi, takt chizmasi paydo bo'la boshladi. Dirijyorlar ijodiy izlanib, o'lcham birbirligiga rioya qilgan holda, har bir hissani aniq qilib ko'rsatishni boshlagan. XVIII asr ikkinchi yarmida esa konsertmeystr-jo'rnavoz orkestrni boshqardi.

Dirijyorlik san'ati O'zbekistonga XX asrning boshlarida kirib kelgan. Unda damli cholg'ular, simfonik orkestrlar va xor bilan xalq cholg'ulari orkestrning o'rni beqiyosdir. Doni Zokirov, Muxtor Ashrafiy, To'xtasin Jalilov, Ergash Toshmatov, Zohid Xaqnazarov va boshqa ustoz dirijyorlar mohirlik bilan shu san'atni o'zlariga kasb qilib o'zlashtirib, ijrochilik maktablarini yarata olishgan. Ushbu dirijyorlik maktablarini yaratishda bevosita ular asosan dirijorning vazifalariga ahamiyat berishgan. Mustaqillik yillaridan buyon dirijyorlik san'ati o'zbek musiqa san'atini rivojlantirishda katta o'rin tutib kelmoqda. O'zbekistonda mashhur dirijyorlar va orkestrlar o'z faoliyatini olib bormoqda. Bulardan, 1991 -yili Toshkentda "Sugdiyona" nomli xalq cholg'ulari kamer orkestri tashkil etilgan va bu orkestr hozirgacha o'z faoliyatini olib bormoqda. Ushbu orkestr repertuaridan o'zbek xalq kuylari, xorijiy xalq kuylari va qo'shiqlari, jahon kompozitorlari asarlari o'rin olgan.

O'zbekistonda yana bir orkestr turlaridan biri bu O'zbekiston milliy simfonik orkestri. Bu orkestr respublikada yetakchi simfonik orkestr hisoblanadi hamda 1938-yilda O'zbek davlat filarmoniyasi tarkibida O'zbekiston davlat simfonik orkestri nomi bilan tashkil topgan.

Ushbu orkestrdi birinchi dirijyori G.Shpitalniy bo'lgan. O'z repertuarlarida orkestr chet el bastakorlari Motsart, Betxoven, Brams, List, Glinka va boshqalarning, XX asr kompazitorlaridan R.Shtraus, Britten, Onegger va boshqalarning barcha asarlarini ijro etganlar.

Dirijyor juda ham nozik eshitish qobiliyati, kuchli musiqiy xotira va didga ega bo'lgan musiqachidir.

Xulosa qilib aytganda: Dirijyorlik san'ati murakkab va nozik dunyosini boshqarishda muhim o'rin egallaydi. U musiqani faqat ijro emas, balki musiqiy asarning ruhini to'g'ri ifodalash san'atidir. Dirijyorlik san'ati rivojlanib professional va ijodiy kasbga aylandi va hozirgi kunda musiqa olamida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ержемский.Г.Л Психология дирижирования Музыка 1988
2. Э. Кан Элементқ дирижирования Музыка 1980
3. Akmaljanova M.. "Fan ziyosi", 2022
4. K.T.Azimov " O'zbekiston dirijyorlari". T.Kebleg-Osiyo, 2001 y.
5. F.Abduraximova " Orkestr sinfi". G.Gulom. Yeo'qrute-2012.
6. M.Qurbonova "Дирижёры Узбекистана" Проблемы современной науки и образованияб Россияю 2020 у



INNOVATIVE
ACADEMY